



## ASALARI OILASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING KELIB CHIQISHI RIVOJLANISHI VA DAVOLASH TEKNALOGIYASI

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Zooinjineriya fakulteti Asalarichilik yo'nalishi talabasi

O'rallova Jayrona O'tkir qizi

jayronaotkirovna1234@gmail.com

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Zooinjineriya fakulteti Asalarichilik yo'nalishi talabasi

Rustamova Shaxzodaxon Alisher qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada asalari oilasida kuzatiladigan yuqumli kasalliklari haqida so'z boradi: nozema, amyoba, yevropa va amerika chirish kasalligi, septisemiya va viruslar, nafas yo'llari orqali o'tadigan akarapis kanasi septisemiya bakteriyasi, ular keltiradigan zararlari, kasallikni oilaga yuqishi hamda asalari oilasini qanday usullarda davolash chora tadbirlari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Asalari, nozema, amyoba, yuqumli, yuqumsiz, kasallik, zararkunanda, dizenfeksiya, vosita, tetrasiklen, sulfantrol, shakar sharbati, tetroleonamitsin, oksotetrosiklen, bakteriya, virus.

**Kirish.** Asalari oilasidagi kasalliklarni davolash asalarichilik soxasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu orqali asalarilarda uchraydigan turli xil kasalliklarni kelib chiqishi, davolash va kasallikni oldini olish choralarini tadbirlarini ishlab chiqariladi va amalyotga tatbiq etiladi.

Davolash natijasida asalarilar kasallik tufayli nobud bo'lishi, ko'rsatkichi kamayadi va asal yetishtiruvchi xo'jaliklarida sodir bo'lishi mumkun bo'lgan katta iqtisodiy zararlarni oldini olish asalarilarni kasalliklarini davolash hozirgi kunda dunyo miqiyosida ham sezilarli darajada rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda asalarilar kasalliklarini o'rganish va davolash choralarini topishda asalarichilik sohasida ko'plab izlanishlar mavjud. Bugungi kunda asalari kasalliklarini davolash to'ri yo'lga qo'yilmagan. Buning natijaida asal yetishtiruvchi xo'jaliklarida turli xildagi kasalliklarining kelib chiqishi va uning avj olishi boshqa xo'jaliklarga tarqalib ketishi, asalarilarning kata qismini nobud bo'lishi, oqibatida esa xo'jaliklarining katta iqtisodiy zarar ko'rishi kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va arilar tanasiga o'tishi har xil bo'ladi. Ayrim kasalliklarni qo'zg'atuvchi bakteriyalar arilar tanasiga ichaklari orqali o'tadi, ya'ni bular nozema, amyoba, yevropa va amerika chirish kasalligi qo'zg'atuvchisi hamda septisemiya va viruslar hamda nafas yo'llari orqali



o'tadiganlarga akarapis kanasi, septisemiya bakteriyasini ko'rish mumkin. Tez o'tadigan kasalliklar 2-4 kun, surunkali kasalliklar esa 2-4 hafta o'tgach rivojlanadi [5].

**Kasallikni kelib chiqishi va belgilari:** Inkubatsion davrda bu kasallik 3-7 kun davom etadi. Kasallangan qurtcha tanasidagi bo'g'im g'ildirakchalarini yo'qotib, kulrang ranga kiradi. So'ngra sut aralashgan coffe rangiga yaqin ko'rinchga aylanadi. Kasallik boshlangandan so'ng taxminan 4 haftadan keyin kasallangan qurtcha to'q jigarrang tusga kiradi va to'qimalari sochila boshlaydi [2]. Agarda inchani ochib bakteriyalok tayoqchani chirib yotgan qurtchaga tekkizsangiz, ingichka joyi ipga o'xhash 10-15 smga cho'zilib duradgorlar shirachiga o'xhash yoqimsiz hid chiqaradi. Oradan 1 oy o'tgach chirigan qurtcha qotadi va po'stloqga o'xshab incha devotiga yopishib qoladi va ularni asalarilar tozalay olmaydi natijada yuqumli kassaliklar inchada qolib ko'paya boshlaydi [2].

**Kasallikni tarqalishi:** Kasallikni chaqiruvchi bakteriya va viruslar kasallangan oiladan sog'lom oilalarga asal, gulchang, suv orqali o'tadi [2]. Ko'pchlik hollarda boshqa hashoratlar yani sariq ari, qo'ng'izlar, mum kuyasi kapalagi, qurtchasi hamda kanasi orqali yuqadi. Asalari organizimini ko'pincha yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchi bakteriya va viruslarga qarshi kurashuvchi immunitet xususiyatiga egadir [5]. Imunitetlar asosan tug'ma va hayoti davomida ortirilgan turlariga bo'linadi. Tug'ma immunitetlar organizm tashkil bo'lishi bilan yuzaga keladi. Avlodlarga tug'ma shakilda marfologik ko'rsatkichlari bilan o'tadi. Hayoti davomida hosil bo'lgan immunitet yuqumli kasalliklar bilan kasallanish oqibatida yuzaga keldi [3].

**Kasallikni davolash texnologiyasi:** Asalari oilasini davolashda asosan ozuqasiga bir qisim shakarga bir qisim suv quyulib shakar sharbati tayyorlanadi. Shakar sharbati 30 gradusda sovutilgach -1 litr shakar sharbatiga yot, tetrasiklen neometsilen eritmasini, oksotetrasiklinga qo'shiladi [5]. Tetrasiklendan 400 ml yot natrisulfazol natriyidan 1 gram, sulfantroldan 2 gram tetroleoometsin 1 gram qo'shiladi. Tayyor bo'gan dorini shakar sharbati solinadigan idishda berish lozim [2]. Davolashda ozuqani har 5-7 kundan kasallik tuzalgungacha berish tavsiya etiladi [5]. Shu sababli kasallik tarqalishini oldini olish uchun kasallangan oilalarni ajratib maxsus karantinga oilish zarur. Shundagina kasallangan oiladan sog'lom oilaga kasallik yuqmaydi. Iqtisodiy zarari kamroq bo'ladi hamda oila mahsuldarligi saqlanib qolinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017- yil noyabr oyida PQ -2237 sonli qarori"
2. Asalari kasalliklari va zararkunandalari - T.: "Sharq" 2013-96 b. Isomuhamedov A. Niqadamboev X.
3. Asalarichilik Asoslari o'quv qo'llanmasi Toshkent 2021.

4. B.A.Qaxramonov , F.E. Safarova , S.I. Isomuxammedov, X.A. Danayev ,X.B . Ergashevlar bu sohada olib borilgan ishlari.
5. Azimova D.U 2022-yi “Asalarilarda uchraydigan nozematoz kasalligini oldini olishda pirobiotiklarni samarasini o’rganish”.